IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

Boshlang'ich Ta'limda Zamonaviy Interaktiv Metodlardan Foydalanish

Kuttiboyeva Aygul To'rebekovna

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 25-UO'T maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida interaktiv metodlardan foydalanish, boshlang'ich ta'limni tashkil etishda interaktiv metodlarning tutgan o'rni va interaktiv metodlarning boshlang'ich ta'lim sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatining in'ikosi sifatidagi ahamiyati.

Kalit so'zlar: interaktiv, metod, innovatsion texnologiyalar, printsip, pedagogic texnologiyalar, ta'lim tamoyillari, modellashtirish

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida interaktiv metodlardan qo'llanilishini ta'minlash. keng foydalanish va keng Bugungi kunda O'zbekiston huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyat yo'lida izchil qadamlar tashlayotganligi sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi tubdan isloh qilindi. Shaxs manfaati barcha manfaatlardan ustun qo'yildi va ta'lim ustuvorligi qaror topdi.Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " ni amalga oshirish shartlaridan biridir. Shu maqsadda, muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan Milliy dasturni amalga oshirish bosqichida (2001-2005) " o'quv tarbiyaviy jarayon ilg'or pedagogic texnologiyalar bilan ta'minlash " g'oyasi ilgari surilgan edi. Ya'ni bunda ta'lim beruvchi (o'qituvchi) ham ta'lim oluvchi (o'quvchi) ham birdek faol harakatda bo'lmog'i kerak.Shuning uchun ham biz asosiy diqqatimizni boshlang'ich ta'lim tizimiga qaratmoqchimiz.Chunki bizning kelajagimiz bo'lgan yosh-avlod asosiy ya'ni fundamental bilimni shubhasiz, boshlang'ich sinfdan olishni boshlaydi. Bizning maqsadimiz bugungi kun pedagoglari o'z faoliyatidainnovatsion pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishidir. Lekin bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib, ham o'qituvchi ham o'quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha umumta'lim maktablarida ham kuzatish qiyin masala. Shuning uchun biz bu mavzuni bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirdik.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuv-dan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydlanish qobiliyatiga egalik; Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik. Turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; O'qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta'limning turli bosqichlarida o'qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati; Bolalarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish usullarini egallaganlik; Ta'lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil tish usullarini egallaganlik; Pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish; Jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o'ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va

tamoyillarini hisobga olgan holda, ko‘pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash; Kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatlilik; Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro va milliy meyoriyhuquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati; Tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik; Inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; Ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatlilik.

Fanga doir kompetensiyalar.

Boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik; Boshlang‘ich ta’limga doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik; Boshlang‘ich ta’limga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o‘quvchilarga uzatishga qobiliyatlilik; Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi fan dasturlarii (ona tili, bolalar adabiyoti, matematika, geografiya (atrof, olam), texnologiya) doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi: Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman), rus tili (ta’lim rus va o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.

Adabiyot so‘z san’atidir, shu sababli ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligi va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rgani-layotgan voqea-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili, adabiyot hamda o‘zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyat-lari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanish-tirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va umumiy o‘rta bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvo-psixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan

fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi , olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljal-langan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Bolalar adabiyoti fani milliy hamda jahon bolalar adabiyoti milliy o‘zbek bollar adabiyotining nodir namunalarini bilish asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantiradi hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchining ma’naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘qish (umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari o‘quv rejasidagi adabiyot) fani og‘zaki va izchil nutqni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish fanini o‘qitish orqali o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg‘otish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o‘stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o‘quvchining fikr-lashini o‘stirish ko‘zda tutiladi. O‘qish darslari oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o‘zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ– 4708-son 07.05.2020 Qarori.
2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. К Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП–4947.
3. Дрига В.И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях креативного образования / В.И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2012. – № 4. – С. 48–51
4. Tursynbaevich, A. B., Kizi, U. A. S., & Kizi, A. G. B. (2022). Wind Mill and Solar Energy. *Texas Journal of Engineering and Technology*, *15*, 178-180.
5. Аметов, Б. Т. (2021). Возникновение И Распространение Ударной Волны В Твердом Теле. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *1*(6), 42-44.
6. Аметов, Б. Т., Султанбаев, А. П., & Жангабаев, А. К. (2021). ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ. In *КОНКУРС МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 72-74).
7. Sobirova, D. R., & Shamansurova, K. S. (2016). Features of influence of the new product obtained by new technologies on animal organism in the experiment. In *The Eleventh European Conference on Biology*

and Medical Sciences (pp. 44-46).

8. Abdullaevich, N. N., Ravshanovna, S. D., & Klara, B. (2017). Effect of genetically modified product on reproduction function, biochemical and hematology indexes in experimantal study. *European science review*, (1-2), 94-95.
9. Собирова, Д. Р., Нуралиев, Н. А., & Усманов, Р. Д. (2018). Оценка медико-биологической безопасности генно-модифицированного продукта. *Методические рекомендации*.
10. RAVSHANOVNA, S. D., ABDULLAYEVICH, N. N., & FURKATOVNA, T. S. Assessment of the Influence of the Food Product of Gmo on the Sexual Function and Are Biochemical Research White Laboratory Outbreed Rats. *JournalNX*, *6*(05), 38-40.
11. Собирова, Д., Нуралиев, Н., & Гинатуллина, Е. (2017). Результаты экспериментальных исследований по изучению и оценке мутагенной активности генно-модифицированного продукта. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (93)), 182-185.
12. Sobirova, D. R., Azizova, F. X., Ishandjanova, S. X., Otajanova, A. N., & Utepova, N. B. (2021). Study of changes in pulmonary alveolar epithelium and aerogematic barrier in diabetes mellitus.
13. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING? AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING?. *Интернаука*, (22-4), 19-21.
14. Arziqulov, F., & Majidov, O. (2021). O ‘ZBEKISTONDA OCHIQ MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA. *Science and Education*, *2*(1), 153-157.